

BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHI QIZLARINING AYRIM JISMONIY RIVOJLANISH KO’RSATKICHLARI.

F.N.Mirzabekova
Andijon davlat universiteti

Yurtimizda inson salomatligini saqlash va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish masalalariga azaldan davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishda ushbu masalalar yuzasidan Harakatlar strategiyasi Besh tashabbus va bir qancha qaror va farmoishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kundagi dolzarb masalalar negizida axoli salomatligini saqlash, sog'liqni saqlash sohasini tubdan isloh qilish, xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarni ijtimoiy ximoya qilish kabi qarorlar dolzarb masalalar qatorida belgilangan. Sog'lomlashtiruvchi mashqlar bilan shug'ullanish, sog'liqni mustahkamalydi, jismoniy qobilyatni yaxshilaydi, ayniqsa yoshlarni sog'lom o'sish va rivojlanishini ta'minlaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy rivojlanishi va jismoniy salomatligini davriy ravishda o'rganib borish va taxlil qilish, profilaktik sog'lomlashtiruvchi ishlarni belgilab borish katta ahamiyat kasb etadi.

Biz shu maqsadda kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganmoqchi bo'ldik. 3-4-sinf qiz bola o'quvchilarni umum ta'lim maktablaridan ixtiyoriy ravishda kuzatuvchi jalb qildik. O'quvchi qizlarning bo'yi uzunligi, tana vazni og'irligi, ko'kra qafasi aylanasi va o'pkaning tiriklik sig'imi kabi ko'rsatkichlarini o'lchadik. Olingan natijalar quyidagilar bo'ldi. 3- sinf o'quvchi qizlarining o'rtacha bo'yi $132,0 \pm 12$ sm 4- sinf o'quvchi qizlarining o'rtacha bo'yi $136,3 \pm 0,96$ sm O'rtacha ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslanganda orasidagi farq 3,4 sm ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich statistik jihatida muqarrardir. 3- sinf o'quvchi qizlarining o'rtacha tana og'irligi $28,0 \pm 0,64$ kg ni tashkil qilgan bo'lsa, 4-sinf o'quvchi qizlarining o'rtacha tana og'irligi $31,2 \pm 0,8$ kg ni tashkil etdi. O'quvchi qizlarning tana og'irligidagi farq 3,2 kg bo'lib, statistik jihatdan muqarrardir. ($P < 0,01$). 3- sinf o'quvchi qizlarining tinch holatdagi ko'krak qafasi aylana uzunligi sut bezlari ro'parasidan o'lchanganda o'rtacha ko'rsatkichi 60,0,56 sm ni, 4-sinf o'quvchi qizlarida esa o'rtacha $65,5 \pm 0,9$ sm ni tashkil qildi.

O'rtacha ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslanganda orasidagi farq 5,5 sm bo'lib statistik jihatdan muqarrardir. ($P < 0,001$). 3-sinf o'quvchi qizlarining o'pkaning tiriklik sig'imi o'rtacha ko'rsatkichi $1722,8 \pm 57$ ml ga teng 4-sinf o'quvchi qizlarida esa o'pkaning o'rtacha tiriklik sig'imi $1826,0 \pm 38,7$ ml ko'rsatkichini tashkil qildi. Guruhlarni o'rtacha ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanganda orasidagi farq 103 ml ko'rsatkichini tashkil qildi. Bu farq statistik jihatdan muqarrar emas. ($P > 0,05$). 3-4- sinfda o'qiyotgan qizlarning morfologik ko'rsatkichlari bo'yi va tana og'irligini o'rtacha ko'rsatkichlari va ularni yillik o'zgarish dinamikasi adabiyotlarda keltirilgan ko'rsatkichlarga mos keladi.

Ko'krak qafasi aylanasi va uzunligi teng xolatda sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. O'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichlari ham yoshga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Olingan natijalar o'sish va rivojlanish qonuniyatlariga mos ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Безруких М.М, Сонькин В.Д., Фабер Д.А Возрастная физиология. – Москва, АСАДЕМА, 2003. – 416 с.
2. Клемешева Л.С., Алиматов К.Т., Алламурадов Ш. И., Улғайиш физиологияси. – Тошкент, 2000
3. Арипова С.Х., Шахмурова Г. Ёш физиологияси ва гигиенаси Т 2010 й.
4. Linda S. Costanzo. Physiology- fifth edition. Virginia USA, - 2013.
5. Sodiqov Q, Aripova S.H., Shahmurova G.A “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. Т 2009у.
6. Сапин М.Р, Брыскина З.Г, Анатомия и физиология детей и подростков/ М.Р Сапин, З.Г Брыскина. М.: Академия, 2002.-453 с